



**SOLIQ TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA
KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING TIZIMLI TAHLILI VA AXBOROTLARNI
QAYTA ISHLASH JARAYONLARIDA ULARNING AHAMIYATI**

Jamalova Gulchexra Babakulovna

Qarshi davlat texnika universiteti "Axborot tizimlari va texnologiyalari" kafedrasida katta o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada soliq tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ko'rsatilayotgan xizmatlarni joriy etish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari kompleks tarzda ko'rib chiqilgan. Interaktiv soliq xizmatlarining turlari va funksional imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning soliq ma'muriyatchiligi tizimidagi institutsional o'rni, shuningdek soliq jarayonlarini raqamlashtirishning soliqlar yig'iluvchanligini oshirish va davlat budjeti barqarorligini ta'minlashga ta'siri baholangan. Tadqiqotda raqamli platformalar va elektron servislardan foydalanish soliq munosabatlarining shaffofligini oshirishga, ma'muriy xarajatlarni kamaytirishga hamda inson omili bilan bog'liq xatarlarni minimallashtirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Shuningdek, soliq sohasida axborot xavfsizligini ta'minlash va qog'ozsiz hujjat aylanishini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: soliqlar, raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, soliq ma'muriyatchiligi, interaktiv xizmatlar, elektron davlat xizmatlari, soliq organlari.

**СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ УСЛУГ, ПРЕДОСТАВЛЯЕМЫХ В НАЛОГОВОЙ
СИСТЕМЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ, И ИХ
ЗНАЧЕНИЕ В ПРОЦЕССАХ ОБРАБОТКИ ИНФОРМАЦИИ**

Жамалова Гульчехра Бабакуловна

старший преподаватель кафедры «Информационные системы и технологии» Каршинского государственного технического университета.

АННОТАЦИЯ

В статье комплексно рассмотрены теоретические и прикладные аспекты внедрения и развития услуг, предоставляемых в налоговой системе на основе современных информационно-коммуникационных технологий. Проанализированы виды и функциональные возможности интерактивных налоговых сервисов, их институциональная роль в системе налогового администрирования, а также влияние цифровизации налоговых процессов на повышение собираемости налогов и устойчивость государственного бюджета. Обосновано, что использование цифровых платформ и электронных сервисов способствует повышению прозрачности налоговых отношений, снижению административных издержек и минимизации рисков, связанных с человеческим фактором. Особое внимание уделено вопросам информационной безопасности и формированию безбумажного документооборота в налоговой сфере.

Ключевые слова: налоги, цифровизация, информационно-коммуникационные технологии, налоговое администрирование, интерактивные услуги, электронные государственные услуги, налоговые органы.



**SYSTEMATIC ANALYSIS OF SERVICES PROVIDED THROUGH INFORMATION
TECHNOLOGIES IN THE TAX SYSTEM AND THEIR SIGNIFICANCE IN
INFORMATION PROCESSING**

Jamalova Gulchekhra Babakulovna

senior lecturer of the Department of Information Systems and Technologies of Karshi State
Technical University.

ABSTRACT

This article presents a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of implementing and developing services in the tax system based on modern information and communication technologies. The types and functional capabilities of interactive tax services are examined, their institutional role in the tax administration system is highlighted, and the impact of digitizing tax processes on increasing tax collection and ensuring the stability of the state budget is evaluated. The study substantiates that the use of digital platforms and electronic services contributes to enhancing transparency in tax relations, reducing administrative costs, and minimizing risks associated with human factors. Special attention is paid to ensuring information security in the tax sphere and establishing a paperless document management system.

Keywords: taxes, digitalization, information and communication technologies, tax administration, interactive services, electronic government services, tax authorities.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat moliyaviy boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan soliq tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilish darajasiga bog'liq bo'lib bormoqda. Zamonaviy soliq tizimi nafaqat soliqlarni undirish mexanizmi, balki davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi murakkab axborot tizimi sifatida namoyon bo'lmoqda. Soliq tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish soliq ma'muriyatchiligini modernizatsiya qilish, soliq intizomini mustahkamlash va iqtisodiyotda yashirin aylanmalarni qisqartirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, interaktiv xizmatlarning joriy etilishi soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini ixtiyoriy va o'z vaqtida bajarish darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, soliq tizimida axborot texnologiyalari asosida ko'rsatilayotgan xizmatlarning mazmuni, mexanizmlari va samaradorligini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushumini hisobga olish hamda nazorat qilish darajasini oshirishga, soliq tushumlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash va soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olishga, shuningdek soliq to'lovchilar uchun ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish hamda sifatini oshirishga yo'naltirilgan muammolar va ularni o'rganish masalalari ushbu maqolada atroflicha tahlil qilingan va soliq tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo'llashning istiqboldagi yo'nalishlari belgilab berilgan .

Respublikamizda so'ngi yillarda soliq islohotlariga alohida e'tibor qaratilib, soliq organlari faoliyatini tubdan isloh qilish, soliq qonunchiligini soddalashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tendentsiyasi hamda soliq organlarining ishlarini axborot texnologiyalari orqali bajarish muntazam amalga oshirilib kelinmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan so'ngi paytlarda qabul qilinayotgan Farmon va qarorlar soliq siyosatini erkinlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy sohani rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirish, soliq xizmatlaini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirishga qaratilayotganligi alohida ahamiyatga ega .

Adabiyotlar sharhi va nazariy asoslar. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish, malakali xodimlarni tayyorlash, kompyuter jihozlari, dasturiy mahsullar bilan ta'minlash hamda zamon talabidan kelib chiqib, soliq idoralarida jamlangan hisobotlarni elektron ko'rishda quyi soliq xizmati organlaridan Davlat soliq qo'mitasiga uzatish, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan beriladigan operativ topshiriqlarni davlat soliq boshqarmalariga va davlat soliq inspeksiyalariga to'g'ridan – to'g'ri uzatish masalalari, shu bilan birga soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish, ularni davlat budjeti oldidagi majburiyatlarining bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni yagona soliq to'lovchilar bazasida saqlash va boshqa masalalar dolzarb masalaga aylandi.

Ilmiy adabiyotlarda soliq tizimini raqamlashtirish masalalari davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishi sifatida qaraladi. O'zbekistonlik olimlar R.A. Dadabayeva, N.X. Shoaxmedova, L.T. Ibragimova va Sh.T. Nasridinova tadqiqotlarida soliq organlari faoliyatida yagona axborot makonini shakllantirish soliq nazoratining institutsional asoslarini mustahkamlashi ta'kidlangan. Shu bois Davlat soliq xizmati organlarida zamonaviy axborot texnologiyalari asosida axborot tizimini yaratishga asos solindi va uning huquqiy bazasi yaratildi.

Xorijiy tadqiqotchilar (Jonas Blume, Maja Bott, Vikram Chand va boshqalar) soliq ma'muriyatchiligida axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasida quyidagi asosiy effektlar yuzaga kelishini ilmiy jihatdan asoslab bergan:

- soliq bazasini kengaytirish;
- ma'muriy xarajatlarni qisqartirish;
- soliq tushumlarining prognozlash aniqligini oshirish;
- soliq to'lovchilarning muvofiqlik darajasini kuchaytirish.

Mazkur yondashuvlar soliq tizimida axborot texnologiyalarining faqat texnik vosita emas, balki strategik boshqaruv instrumenti ekanligini ko'rsatadi.



Rasm-1. Soliq ma'muriyatining axborot texnologiya tizimida zarur bo'lgan funktsionallik


Jonas Blume va Maja Bottning fikricha, soliq tizimidagi axborotlar oqimini boshqarish tez- tez qo'llaniladigan va mohiyatiga ko'ra, barcha soliq tizimlarida bir xil ishlar, ya'ni soliq to'lovchilarni aniqlashlari, kimdan qarzdorligini bilishlari uchun ma'lumotlarni qayta ishlashlari kerak. Soliq

ma'muriyatining asosiy axborot texnologiya tizimlaridagi odatiy funktsionallik soliq ma'muriyatining axborot texnologiya tizimida zarur bo'lgan funktsionallikda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimli yondashuv asosida soliq tizimida axborot texnologiyalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, taqqoslash, statistik tahlil, empirik kuzatuv hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari, rasmiy statistik hisobotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xorijiy ilmiy manbalar tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Soliq tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning asosiy maqsadi soliq organlari tomonidan bajariladigan standart operatsiyalarni avtomatlashtirish orqali ma'muriy samaradorlikni oshirishdan iboratdir. Elektron deklaratsiyalar, elektron hisob-fakturalar, soliq to'lovchining shaxsiy kabineti kabi xizmatlar soliq ma'lumotlarini real vaqt rejimida qayta ishlash imkonini bermoqda.

my.soliq.uz portali orqali taqdim etilayotgan interaktiv xizmatlar soliq tizimining institutsional rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Portal soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi axborot almashinuvini markazlashtirib, soliq jarayonlarining shaffofligini oshirmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, interaktiv xizmatlardan foydalanish soliq to'lovchilarning vaqt va moliyaviy xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish bilan birga, soliq organlarining nazorat funksiyalarini yanada takomillashtirish imkonini bermoqda.



Rasm-2. Davlat soliq qo'mitasining «Elektron davlat xizmatlari – my.soliq.uz» portalidagi elektron xizmatlar

Bugungi kunda elektron davlat xizmatlaridan 25 tasi — axborot davlat xizmatlari, 20 tasi – interaktiv, 31 tasi – test sinovdagi xizmatlari tarkibiga kiradi.

Portalda yuridik, jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq to'lovchining «shaxsiy kabinet»lari joriy etilgan. O'zlarining «shaxsiy kabinet»lariga kirib, Davlat soliq qo'mitasining «Elektron davlat xizmatlari – my.soliq.uz» portalidagi elektron xizmatlardan foydalanishlari mumkin .



Portalda jismoniy va yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun alohida “shaxsiy kabinet” ochilgan bo‘lib, ularga taalluqli xizmatlar maxsus bo‘limlarga joylashtirilgan. Portal orqali soliqlarni mustaqil ravishda hisoblab chiqarish, hisobot va soliq deklaratsiyalari, murojaatlarni yuborish mumkin.

Portalda 14 turdagi elektron ma‘lumotnomani mustaqil ravishda shakllantirib, chop etib olsa bo‘ladi. Ular o‘zining unikal raqamiga ega bo‘lib, korxonalar va tashkilotlarga taqdim etilganda soliq organlarining ma‘lumotlar bazasidan haqiqiylikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tekshirib olish imkoniyati mavjud.

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati va uning davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligiga ta‘siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Muallif soliq tizimini nafaqat fiskal instrument, balki davlat va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi axborot almashinuviga asoslangan murakkab tizim sifatida talqin etishi zamonaviy ilmiy yondashuvlarga mos keladi. Bu fikr, ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma‘muriyatchiligini modernizatsiya qilish zarurati ortib borayotgan bir paytda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maqolada interaktiv soliq xizmatlarining joriy etilishi soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarish darajasini oshirishi, soliq tushumlarining barqarorligini ta‘minlashi va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Bu esa soliq tizimida raqamlashtirish jarayonlari faqat texnologik o‘zgarish emas, balki institutsional va ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga ham olib kelishini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, muallifning soliq xizmatlarini raqamli platformalar orqali ko‘rsatish masalasini ilmiy-amaliy muammo sifatida ko‘rib chiqishi asosli hisoblanadi. Biroq tadqiqotda keltirilgan xulosalarning ilmiy asoslanganligini yanada mustahkamlash uchun interaktiv xizmatlarning samaradorligini aniq statistik ko‘rsatkichlar yoki empirik ma‘lumotlar asosida baholash maqsadga muvofiq bo‘lardi. Masalan, raqamli xizmatlar joriy etilgandan keyingi soliq tushumlari o‘shirish sur‘atlari, ma‘muriy xarajatlar dinamikasi yoki soliq to‘lovchilarning qoniqish darajasi kabi ko‘rsatkichlar keltirilishi ilmiy tahlilni chuqurlashtirgan bo‘lardi.

Shuningdek, maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari va ularning normativ-huquqiy asoslariga alohida e‘tibor qaratilgani tadqiqotning amaliy yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Davlat rahbari tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning soliq tizimini raqamlashtirishdagi o‘rni qayd etilgani soliq siyosatining strategik yo‘nalishlarini ochib beradi. Biroq bu jarayonlarni xalqaro tajriba bilan qiyoslash yoki ilg‘or soliq tizimlari bilan solishtirish tadqiqotning ilmiy qiymatini yanada oshirishi mumkin edi.

Umuman olganda, maqola soliq tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan dolzarb ilmiy-amaliy ish hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda raqamli soliq xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini miqdoriy baholash, sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar texnologiyalarini soliq nazoratiga joriy etish hamda soliq tizimining intellektual boshqaruv modellarini ishlab chiqish muhim ilmiy yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, soliq tizimida axborot texnologiyalariga asoslangan xizmatlarni joriy etish soliq ma‘muriyatchiligini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu xizmatlar soliq intizomini mustahkamlash, davlat budjeti tushumlarini barqarorlashtirish va soliq to‘lovchilarning muvofiqlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida soliq tizimida sun‘iy intellekt, katta hajmdagi ma‘lumotlar (Big Data) va raqamli tahlil texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish soliq siyosatini yanada takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy imkoniyatlar yaratadi.



Yangi axborot texnologiyalarini qo'llashda, soliq ma'murchiligi soliq to'lovchilar qonunchiligiga rioya qilishni yaxshilashdan iborat asosiy maqsadlarini yodda tutishlari va yangi texnologiyalarni joriy etishlari kerak. Ularning biznes yo'nalishi va muvofiqlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydigan tizimli usullardan foydalanishlari kerak.

Bundan ko'zlangan maqsad – soliq tizimiga yordam beradigan mustahkam muvofiqlik dasturini yaratish, soliq to'lovchilarning muvofiqligini maksimal darajada oshirish va tegishli texnologiya bilan samarali qo'llab-quvvatlangan holda, muvofiqlik xarajatlarini minimallashtirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risidagi” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savaraliamalga oshirish tadbirlari to'g'risida”gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF- 6079 sonli Farmoni
4. М.С. Якубов, Г.Б.Жамалова “Интеллектуальные модели и методы поддержки принятия управленческих решений в налоговой службе” “Евразийское Научное Объединение”.72-я международная научная конференция “Современные концепции научных исследований”. № 2 (72), 2021. ISSN 2411-1899. –С.108-112
5. М.S. Yakubov, G.B.Jamalova “Adaptation of C-Average and Gustafson-Kessel algorithms for intellectual information processing in the tax unit services - tax inspection” ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal). ISSN: 2249-7137. Vol. 11, Issue 2, 2021. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00411.0 -P. 657-665
6. Г.Б.Жамалова. «Налоговая политика на макро и микроэкономическом уровнях, ее сущность и принципы разработки» International scientific and technical journal. Innovation technical and technology.
7. Г.Б.Жамалова. «Методы моделирование процессов налогообложения» Central Asian journal of mathematical theory and computer sciences. С-133-139
8. Г.Б.Жамалова. «Информационное моделирование с применением искусственных нейронных сетей». Academic research in educational sciences. С-730-742
9. Г.Б.Жамалова. «Роль автоматизированных компьютерных систем в налоговом контроле» Multidisciplinary Journal of Science and Technology. С-267-270
10. Г.Б.Жамалова. «Классификация подходов к интеграции и взаимодействию информационных систем». Multidisciplinary Journal of Science and Technology. С- 126-131
11. АМ Турғунов, ГБ Жамалова. Принятие управленческих решений на основе прогнозирования налоговых поступлений. Academic research in educational sciences. С-1092-1102
12. М Yakubov, А Turgunov, А Kamolov, G Jamalova. Use of mathematical model of an artificial neural network for current forecasting of tax base of region. E3S Web of Conferences.